



ALISHER NAVOIY BIZ YOSH AVLOD UCHUN O'RNAK BO'LADIGAN TARBIYAVIY HAYOTI

Husenova Sabina

Nizomiy nomidagi TDPU, Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Navoiy 1441-yil 9-fevralda Hirotning Bog'i Davlatxona degan joyida tug'ilgani, Alisher 3 — 4 yoshidan she'r yodlay boshlagani, Navoiy barcha turkiy xalqlarning eng buyuk shoiri sifatida tan olingani va uni ijodini yoshlarga tarbiyaviy ahamiyati haqida soʻz boradi.*

Kalit soʻzlar: *Alisher Navoiy, adabiyot, asar, siymo, ulugʻ, shoir, mutafakkir, tadqiqot, izlanish.*

Alisher Navoiy o'zbek adabiyoti taraqqiyoti va o'zbek adabiy tili ravnaqiga ulkan hissa qo'shgan ulkan ijodkordir. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, ulug' bobokalonimiz shaxsiyati va ijodiga munosabat tubdan o'zgardi. Hazrat Navoiyning boy adabiy merosiga to'laqonli va haqqoniy yondashish imkoniga ega bo'ldik. U zotning ijodini yanada chuqurroq o'rganish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar qilinyapti, ilmiy izlanishlar ko'lami yanada kengaymoqda. Alisher Navoiy o'zbek madaniyati, adabiyoti tarixidagi ulug' siymolardan biridir. U o'zining hayoti, talanti, ijodini haqqa va xalqqa bag'ishlagan insondir. U lirik shoir, epik shoir, adabiyotshunos olim, tarjimon sifatida madaniyatimiz tarixida alohida o'rin tutadi.

Navoiy 1441-yil 9-fevralda Hirotning Bog'i Davlatxona degan joyida tug'ildi. Otasi G'iyosiddin Muhammad (kitoblarda uni G'iyosiddin kichkina, G'iyosiddin baxshi deb ham yozadilar) Abulqosim Bobur podshohligi davrida Sabzavor shahrining hokimi bo'lgan. Onasi Hirot amirlaridan Abu Said Changning qizi bo'lib, podsho saroyida enagalik qilgan. Shuning uchun Navoiy Husayn Boyqaro bilan ko'kaldosh hisoblanadi. Navoiyning to'liq ismi Mir Nizomiddin Alisher Navoiy deb yuritiladi. "Mir" so'zi amir so'aning qisqargan shakli bo'lib, shoh saroyidagi amal nomidir. "Nizom" so'zi yo'1-yo'riq, qoida demakdir. Navoiy o'z zamonining yirik din vakili edi, G'iyosiddin Muhammad o'g'liga Alisher deb nom qo'yar ekan, uni payg'ambarimiz sahobalaridan biri - Aliga o'xshashini orzu qildi, "Sher" so'zi ham Aliga nisbatan olingan. Payg'ambarimiz Alining dushmanlar bilan bo'lgan jangdagi jonbozligini ko'rib: "Ali - Oллоhning sheri", - der edi. Navoiy shoiriming taxallusi bo'lib, "navo" so'zidan olingan. Bu so'z zamirida "kuy", "baxt", "bahra", "sayrash" ma'nolari bor. Shoir o'z taxallusiga "bahra" so'zini asos qilib olgan. Shoirning ikkinchi taxallusi "Foniy" bo'lib, "o'tkinchi" ma'nosini beradi. Navoiy ko'prog turkiy tildagi asarlariga Navoiy, fors-tojik tilidagi asarlariga Foniy taxallusini qo'llagan bo'lsada, turkiy tildagi asarlariga Foniy, fors-tojik tillidagi asarlariga Navoiy taxallusini go'llagan o'rinlar ham bor. Alisher 3 — 4 yoshidan she'r yodlay boshlagan. She'rga mehr Alisherni ijodga undadi. U 7-8 yoshida





she'r yozgani ma'lum. Bu she'rlar shoirning aytishicha, "turk alfozi bila", ya'ni turkcha (o'zbekcha) bitilgan.

Navoiy - o'zbek halqining ulug' shoiri va buyuk mutaffakiri bo'lib, uning nomini dunyoning eng mashhur shoirlari qatorida tilga oladilar. Navoiy butun ijodiy faoliyatini insoniyatning baxti uchun kurashga, halqning osoyishtaligi, obodonchilik ishlari, san'at hamda adabiyot taraqqiyotiga bag'ishladi.

Uni mashhurlik yoki boylik emas, yurt uchun xizmat qilish maqsadi qiziqtirar edi. Bundan tashqari ulug' shoir ko'plab shogirdlarni voyaga yetkazdi, mashhur rassom Kamoliddin Behzod va hattot Sulton Alilar ham aynan uning qo'l ostida ta'lim olganlar. Navoiyning yuqori mansab egasi bo'lganidan xabardorsiz, albatta. U olim, san'atkor, yozuvchilardan o'z qobiliyat va imkoniyatlarini to'g'ri ishlatishni talab qilardi. U ijodiy ishga shoshma-shosharlik, pala-partishlik bilan qaraydigan insonlar sirasidan emasdi, bu kabi insonlarni yoqtirmas, shu sababli nasihatni ayamas ham edi. Bundan tashqari shogirdlari Navoiy haqida uning o'ta marhamatli va talabchan ustoz bo'lganini yozib ketganlar, Navoiyga hos bo'lgan ushbu talabchanlik shoirlarni ulug'lik darajasiga ko'tarardi, u ustoz sifatida qo'l ostidagi ijodkorlarning hafsala va sabr bilan ish ko'rishlarining tarafdori bo'lgan.

Hazrati Alisher Navoiy ijodi turkiy adabiyotining eng yuksak cho'qqisidir. Chunki hech kim unga qadar bu tilda bunchalik „ko'p va ho'p“ (Bobur) yozmagan edi. Aytish mumkinki, undan keyin salkam olti yuz yil ichida ham hech kim u kabi ko'p va yaxshi yozolgani yo'q.

Navoiy barcha turkiy xalqlarning eng buyuk shoiridir U o'zini „Xitodin to Xuroson“ gacha yoyilgan turkiy "qavm" larning shoiri, deb bildi. Ularni bir adabiy til bayrog'i ostida birlashtirdi - "yakqalam" qildi. Buyuk shoir Xurosonda, uning poytaxti Hirotda yashab ijod qildi. Navoiy yashagan davrda Xuroson va Mavorounnahr bir mamlakat bo'lib, taxt egasi ixtiyorida kelganligi va aholisining asosiy nufuzinoturk xalqlari tashkil etkanligi ma'lum Zahiriddin Muhammad Bobur Navoiy asarlarining "Andijon shevasi bila rost"ligini aytadi.

Alisher Navoiy inson kamolotida ilmning o'rnini muhim deb biladi. U ilmni insonni, xalqni nodonlik, jaholatdan qutqaruvchi omil sifatida ta'riflaydi. Ilm olishni insoniy burch deb biladi. U ilmda barcha fanlarni o'rganishni targ'ib etadi. Navoiy ilm-fanni yuksaltirish uchun Ixlosiya madrasasini tashkil etdi, uning yonidan maktab ochib, o'z vakfidan mablag' ajratdi. Madrasada qattiq intizomga amal qilinishini nazorat qildi. Navoiy tasavvurlaridagi komil insonga xos bo'lgan eng yuksak fazilatlarga: ijodkorlik, qobiliyat, ilm-fanga muhabbat kiradi. Chunki, baxtli hayotga intilgan Navoiy fikricha, oqil, qobiliyatli, dono inson o'zining kuch-quvvatiga, aqlu zakovatiga ishonadi. Shuning uchun Navoiy ilm-fanning ahamiyatini yoritib berar ekan, ilmni qorong'ilikni yoritadigan chiroq, hayot yo'lini nurafshon etadigan quyosh, odamlarning haqiqiy qiyofasini ko'rsatadigan omil sifatida ta'riflaydi. Bu fikrni «Nazmul javohir» asarida:

Kim olim esa nuqtada barhaq de oni,





Gar bazm tuzar bihishti mutlaq de oni.
Har kimsaki, yo'q ilmga anga ahmaq de oni,
Majlisdagi ilm bo'lsa uchmaq de oni1.

Ya'ni ilmi, oqil odam o'z maqsadiga erishish uchun har qanday qiyinchilikni yengib o'tadi, Kim ilmni o'ziga tayanch qilib olsa, u hech qachon qoqilmaydi, xor bo'lmaydi va ilmning vazifasin inson baxt-saodatiga xizmat qilishdir, deb ta'kidlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. B.Jalilov va boshqalar. O'zbek adabiyoti. T-2006
- 2.B.Qosimov va boshqalar. O'zbek adabiyoti. 10-sinf uchun darslik. T.-2001
- 3.N.Mallayev. O'zbek adabiyoti tarixi. "O'qituvchi" T.-1965
- 4 Q.Yo'ldashev va boshqalar. Adabiyot.

